

KURASH FALSAFASI VA UNING PEDAGOGIK AXAMIYATI

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

“Sport va chaqiriqqacha harbiy ta’lim” fakulteti

XQS 3-bosqich talabasi

Boltayeva Sumbula Muzaffar qizi

boltayevasumbula03@gmail.com

ANNOTATSIYA

Dunyo miqyosida umuminsoniy qadriyat sifatida keng tarqalgan ko‘pgina sport turlari bir vaqtlar qaysidir millatga mansub milliy sport turi, ya’ni qadriyati bo‘lib kelgan. O‘zbek xalqi ham o‘zining milliy qadriyati bo‘lmish “kurash” ni ming yillar davomida asrab-avaylab keldi va XX asr oxirida uni XXI asr sport turi sifatida dunyo sporti hamjamiyatiga taqdim etdi. Bu bilan o‘zbek halqi jahon sporti sohasida yana bir umuminsoniy qadriyatni paydo bo‘lishiga o‘z hissasini qo‘shdi.

Kalit so‘zlar: kurash, maktab, qadriyat, manaviy meros, yosh avlod, tarbiya.

Ключевые слова: борьба, школа, ценности, духовное наследие, молодое поколение, воспитание.

Keywords: struggle, school, value, spiritual heritage, young generation, upbringing.

KIRISH

Kurashimiz asrlar mobaynida mardlik, insoniylik falsafasini targ‘ib qilib kelgan. Lekin kurashga panja orasidan qaralgan, bobomeros san‘atimiz tahqirlangan zamonlar ham bo‘ldi. Biroq u xalqimiz turmushida, ayniqsa to‘ylarda yashashda davom etaveradi. Mustaqillik davrida Prezidentimiz Islom Karimov rahnamoligida kurashimiz milliy qadriyat sifatida xalqaro maydonda tan olingan, qaddini rostlagan ommaviy sport turiga aylandi. Albatta, bunday olamshumul e’tirof qozonish osonlikcha bo‘lgani yo‘q.

Jismoniy tarbiya va sport sohasi insoning nafaqat jismoniy, balki ma’naviy kamolotga erishishida ham salmoqli omil ekanligi hech kimga sir emas. Sport irodani toblaydi, kishini aniq maqsad sari intilishga undaydi, qiyinchiliklarni bardosh va chidam bilan yengib o‘tishga o‘rgatadi. Inson qalbida ishonch, g‘urur va iftixor tuyg‘ularini undiradi, parvarishlaydi, asraydi. Barcha sport turlarining otasi deya ta’riflanayotgan kurashning bu boradagi ahamiyati esa yanada muhimdir. Zero, polvonlik amal-u tadbirlari, uning falsafasi kishini o‘z-o‘zidan komillik sari yetaklaydi.

Milliy istiqlol bois kurash jahon kengliklarida qanot qoqmoqda. Muhimi, milliy istiqlol g‘oyasi tamoyillari bilan asrlar davomida shakllangan kurash falsafasi mohiyatida ham ayni bir muddao mujassamlashganini ko‘rish mumkin. Shunday bo‘lishi ham tabiiy. Kurash o‘zbek xalqi bilan birga tug‘ilib, u bilan yashab

kelayotgan bo'lsa, milliy istiqloq xalqimizning ana shu qadriyatini, ta'bir joiz bo'lsa, ma'naviyati gavharini yetti iqlimga ko'z-ko'z qildi.

Kurashning jahon maydoniga chiqib, qisqa vaqt mobaynida shiddat bilan bir xalqning milliy udumidan umumbashariy qadriyatga aylanayotganligi masalasiga kelsak, bu hech bir mubolag'asiz, 1-chi Prezidentimiz Islom Karimov nomi bilan bog'liq. Yurtboshimiz 1992 yilning 16 martida milliy g'urur, milliy qadriyatlar, xalqimizning urf-odatlarini, halollik, mardlik, fidoyilik singari fazilatlarini o'zida mujassamlashtirgan kurashni xalqaro miqyosga ko'tarish xususida bir qator qimmatli ko'rsatmalar berdilar. Kurashning har jihatdan sog'lom avlodni tarbiyalashda juda katta vosita ekanligini alohida ta'kidladilar, milliy sportimizni jahon sari yo'llash barobarida o'tmishimizda yashab o'tgan barcha pahlavonlar, ulug' allomalarimizning ruhlarini shod etdilar.

Xalqning qadim qadriyati, ori va g'ururi bo'lgan kurashning jahonga yuz tutishini har tomonlama qo'llab-quvvatlagan birinchi prezidentimiz Islom Abdug'aniyevich Karimov «Kurash Xalqaro Assotsiatsiyasi»ning doimiy Faxriy Prezidenti etib saylangan edi. O'zbekiston Respublikasi 1-chi Prezidenti 1999 yilning 1 fevralida «Kurash Xalqaro Assotsiatsiyasi»ni qo'llab-quvvatlash to'g'risida»gi Farmonga imzo chekdi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Kurash Milliy sport turini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori. 2017 yil 2 oktyabrdagi va 2020 yil 4 noyabrdagi «Kurash milliy sport turini rivojlantirish va uning xalqaro nufuzini oshirish yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-4881-sonli qarorlari qabul qilindi. O'z vaqtida qabul qilingan Farmon va Qarorlar mardlik, jasurlik, vatanparvarlik, insoniylik g'oyalarini o'zida mujassamlashtirgan kurashning nafaqat O'zbekistonda, balki butun jahonda keng quloch yoyishiga xizmat qildi. Bugungi kunda dunyoning 5 qit'asida 130 dan ortiq mamlakatlarda, jumladan, Kanada, Boliviya, Janubiy Afrika Respublikasi, Buyuk Britaniya, Gollandiya, Turkiya, Hindiston, Tailand, Yaponiyada O'zbek Kurashining minglab ixlosmandlari bor. Hatto Dominikan Respublikasi, Paragvay, Ekvador, Zambiya, Nigeriya mamlakatlari hamda Mavrikiya orollari ahli o'tyuraklari va shijoatlilari ham kurash haqida yaxshi bilishadi. Tabiiyki, zo'r qiziqish, ishtiyoq bilan kurash usullarini o'rganishmoqda. Hozirgacha Amerika, Afrika, Yevropa, Osiyo va Okeaniya qit'alarida mintaqaviy konfederatsiyalar tashkil etilgan. Ular bu ommabop qadimiy sport turini targ'ib qilish uchun ayni damda o'z faoliyat doiralarini kengaytirmoqdalar. Hindiston, Eron, Gretsiya, Turkiya va Buyuk Britaniyada kurashni rivojlantirish va ommalashtirish borasida tahsinga loyiq ishlar qilinmoqda. Ko'plab ixlosmandlar xususiy kurash zallarini ochib, polvonlarni tarbiyalashmoqda, musobaqalar o'tkazilmoqda.

Kurashning jahonda yangi sport turi sifatida shiddat bilan ommaviylashuvi, jahon sivilizatsiyasiga o'z hissasini ko'shib, umuminsoniy qadriyatga aylanishi - jahon ahlitiga nasib etgan buyuk bir tuhfadir. Kurash tili, dini, millatidan qat'iy nazar jahon xalqlarining ko'ngil turidan joy oldi va ular, hech ikkilanmasdan o'z leksikalarida "Ta'zim", "Kurash", "Halol", "Yonbosh", "Chala", "G'irrom"... kabi o'zbek so'zlaridan bajonidil foydalanmoqdalap. Ha, kurashimiz jahon kengliklariga chiqdi. Chiqqanda ham halol chiqdi. O'zbekcha so'zlab chiqdi. Hozirgi zamonaviy sport turlarining har biri ham qaysidir millatning urf-odatlarini, qadriyatlarini tiklagan holda, uni butun dunyoga targ'ib etadi. Natijada, dunyo ahli ushbu sport turi orqali yaratilgan millat qadriyatlari to'g'risida ma'lumotga ega bo'ladilar.2 Biz XXI asrga eng katta boyligimiz-mustaqillik tiklagan milliy qadriyatlarimiz va kurashimiz bilan birga o'tamiz». Amalda ham shunday bo'ldi. Endigi maqsad - insoniylikdan suv ichgan, tarixiy ildizlari necha-necha ming yillarga borib taqaluvchi kurashni olipiada o'yinlari tarkibiga kiritishdir.

Kurash Xalqaro Assotsiatsiyasi, Kurash Xalqaro Instituti, Turizm va sport vazirligi, O'zbekiston Kurash Milliy Federatsiyasining mutasaddi xodimlari, polvonlar, olimlar, ijodkorlar, ommaviy axborot vositalari vakillari - barcha-barchaning asosiy e'tibori ana shunga qaratilgan. Bu borada alohida ishlab chiqarilgan dasturlar asosida mashaqqatli, ammo sharaflil ishlar qilinmoqda.

Kurashning ko'p ming yillik tarixini chuqur o'rganish hakikatan ham Kurash azaldan polvonlarning jismoniy va ma'naviy yetukligi namunasi sifatida sharaf topganligini, qadrlanganligini tasdiklaydi. Shu bois polvonlarning jismoniy baquvvatliligi, navqiron qaddi-qomati yoki kurashchanlik, harakatchanlik, chaqqonu epchillik jixhatlari bir tomonu, ularning keng davrada o'zlarini qanday tutishi, odob-axloki, ma'naviy qiyofasi, rakibiga muomalasi, jamiyatga, tevarak-atrofga munosabati, vatanparvarligi alohida o'rin tutgan.

Xulosa qilib aytganda, kurash falsafasi o'zida ruhiy kuch, mehr-muruvvat, mardlik, halollik, ruhiy sokinlik, vazminlik, xotirjamlik, samimiyat, kamtarlik kabi oliyjanob xislatlarni mujassamlantirgandir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 4 noyabrdagi «Kurash milliy sport turini rivojlantirish va uning xalqaro nufuzini oshirish yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-4881-sonli qarori.
2. Al – hakim at – termiziy hayoti va ijodiy faoliyati” “Yosh avlodni tarbiyalashda kurashning o'rni va ahamiyati” mavzuidagi Xalqaro ilmiy anjuman materiallari. Termiz – 2011yil
3. N.Sh. Sharipova <https://doi.org/10.5281/zenodo.7890574>
4. J.Abdurasulov <https://doi.org/10.5281/zenodo.7244584>